

2. Бобошев З. Н.(2022). Маданиятлараро коммуникация ва миллий ўз-ўзини англаш феномени. Academic Research in Educational Sciences Volume 3. Issue 10.
3. Кварталнов В.А.(2002). Туризм. Учебник. Москва: Финансы и статистика.
4. Бутузов А.Г.(2009). Состояние и перспективы развития этнокультурного туризма в Российской Федерации / А.Г. Бутузов // Сервис в России и зарубежом. №4. - С.11-15.
5. Ивлева Н.В., Мамоев Б.Ш.(2021). Этнокультурный туризм Казахстана. Учебное пособие.- Алматы: ТОО Лантар Трэйд. - 245 стр.
6. Биржаков М. Б.(2007). Введение в туризм. Москва. – СПб.: Изд. дом Герда, – 576 с
7. Қорабоев У.(2002). Ўзбек халқи байрамлари.— Т.: Шарқ. Б.8.
8. Саримсоқов Б. (1986). Маросим фолклори. - Т.: Фан,— Б 2
9. Жабборов И.(1994). Ўзбек халқи этнографияси. Ўқитувчи, Тошкент. 320 б.
10. Кварталнов В.А.(2002). Туризм. Учебник. М.: Финансы и статистика, 320 с.
11. [ЮНЕСКО Репрезентатив Ро'йхатида киритилган об'ектлар - Intangible Cultural Heritage of Uzbekistan \(ich.uz\)](http://ich.uz)
12. Тухлиев И.С(2008). Туризм асослари: Ўқув қўлланма – С.: СамИСи, 58 б.
13. Türkoğlu N(2023). Özel İlgi Turizminde Güncel Konu ve Eğilimler. Ankara

TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA ICHKI ISHLAR ORGANLARINING ROLI

O'tayev O'tkirbek Matyoqubovich

O'zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti

Kasbiy tayyorgarlik fakulteti

Maxsus fanlar sikli katta o'qituvchisi, podpolkovnik

Annotasiya: Mazkur maqolada ichki ishlar organlarining turizmni rivojlantirishdagi roli va xavfsiz turizmni ta'minlash bo'yicha yaratilgan tizim, shuningdek, turizm joylarida hamda turistlar tomonidan respublika bo'ylab harakatlanish uchun faol foydalanilayotgan temir yo'l va havo-transport infratuzilmasi obyektlarida jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashish bo'yicha amalga oshiradigan vazifalarining ayrim jihatlariga ilmiy asoslangan ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Jamiyat, ichki ishlar organlari, xavfsiz turizm, vazifa, strategiya, turistlar xavfsizligi, turizm obyektlari, infratuzilma, xavfsiz turizm.

Kirish: Mamlakatimizda yangi O'zbekistonni barpo etish barobarida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar, yangilanishlar samarasi o'laroq, ichki ishlar organlarida ham tizimli ishlar qilinmoqda. O'tgan davr mobaynida respublikaning turizm salohiyatini yuksaltirish borasida salmoqli ishlar amalga oshirildi, turistlar uchun qulay sharoitlar yaratish hamda O'zbekistonning tashrif uchun xavfsiz mamlakat sifatidagi obro'sini shakllantirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar ko'rildi. Xavfsiz turizmni ta'minlash bo'yicha yaratilgan tizim turizm joylarida hamda turistlar tomonidan respublika bo'ylab harakatlanish uchun faol foydalanilayotgan temir yo'l va havo-transport infratuzilmasi obyektlarida jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashish chora-tadbirlarini o'zida birlashtirdi.

Shunday islohotlardan biri sifatida Xavfsiz turizmni ta'minlash bo'yicha yaratilgan tizim turizm joylarida hamda turistlar tomonidan respublika bo'ylab harakatlanish uchun faol foydalanilayotgan temir yo'l va havo-transport infratuzilmasi obyektlarida jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashish chora-tadbirlarini o'zida birlashtirdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 5 yanvardagi «O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PF-5611-son hamda 2019 yil 1 fevraldagi «Transport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan

takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-5647-son farmonlariga muvofiq, shuningdek, transport va turizm obyektlarida jamoat xavfsizligini samarali ta'minlashning sifat jihatidan yangi bosqichiga o'tish maqsadida, ushbu yo'nalishda amalga oshirilayotgan islohotlarning mantiqiy davomi sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 martdagi **“Transport va turizm obyektlarida jamoat xavfsizligini ta'minlashning samarali tizimini joriy etishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi** PQ-4229-sonli qarori tasdiqlandi.

Mazkur qaror asosida ichki ishlar organlarining jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasidagi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari belgilandi. Jumladan,

birinchidan, Buxoro, Samarqand, Xiva va Shahrisabz shaharlarida joriy etilgan Xavfsiz turizmni ta'minlash konsepsiyasini Toshkent shahri, Toshkent va Surxondaryo viloyatlarida tatbiq etish va amalga oshirish.

Ichki ishlar organlarining belgilangan shtatlar soni doirasida Toshkent shahar va Toshkent viloyati Ichki ishlar bosh boshqarmalari va Surxondaryo viloyatlari ichki ishlar boshqarmalarining “Xavfsiz turizmni ta'minlash boshqarma”lari tashkil etildi;

ikkinchidan, Xavfsiz turizmni ta'minlash boshqarmalar faoliyatining asosiy yo'nalishlari etib quyidagilar belgilandi:

bevosita turizm namoyishi obyektlari va infratuzilmasi hududlarida jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari xizmatini samarali tashkil qilish;

ichki ishlar organlarining xavfsiz turizmni ta'minlash borasidagi faoliyatiga axborot-texnik jihatdan ko'maklashish, ular o'rtasidagi o'zaro muvofiqlashtirilgan hamkorlik ustidan qat'iy nazorat o'rnatish;

turizm namoyishi obyektlari va infratuzilmasi hududlarida kriminogen vaziyatni tizimli tahlil qilish, turistlarga nisbatan sodir etiladigan huquqbuzarliklar sabablari va sharoitlarini aniqlash hamda ularni bartaraf etish yuzasidan manzilli chora-tadbirlarni amalga oshirish.

Ichki ishlar organlarining transport va turizm obyektlarida xavfsizlikni ta'minlash sohasidagi ma'muriy faoliyatini o'rganish uchun avvalombor quyidagi tushanchalarning mazmun-mohiyatini tushunib olish talab etiladi:

temir yo'l transporti (temir yo'l) – umumiy foydalanishdagi transport turlaridan biri bo'lib, u ishlab chiqarish va ijtimoiy yo'nalishdagi korxonalar, muassasalar va tashkilotlarni o'z tarkibiga olgan, boshqa davlatlarning temir yo'llari va transportning boshqa turlari bilan o'zaro hamkorlikda tashish ehtiyojlarini ta'minlovchi yagona ishlab chiqarish-texnologiya majmuidan iboratdir;

yuk – tashish uchun temir yo'l transporti korxonasi tomonidan belgilangan tartibda qabul qilingan, o'z vaqtida eltib berilishi va saqlanishi uchun temir yo'l javobgar bo'lgan temir yo'l tashish obyekti;

yo'lovchi – yo'l hujjatlariga ega bo'lgan va poyezdda safar qiluvchi fuqaro (jismoniy shaxs);

turizm – jismoniy shaxsning vaqtincha bo'lish mamlakatidagi (joyidagi) manbalardan daromad olish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat bilan shug'ullanmagan holda doimiy yashash joyidan jo'nab ketishi (sayohat qilishi);

turist – vaqtincha bo'lish mamlakatidagi (joyidagi) manbalardan daromad olish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat bilan shug'ullanmagan holda vaqtincha bo'lish mamlakatiga (joyiga) yigirma to'rt soatdan ketma-ket o'n ikki oygacha bo'lgan davrga boruvchi yoki vaqtincha bo'lish mamlakatida (joyida) kamida bir kecha tunab qoluvchi jismoniy shaxs;

turistik yo'nalish – sayohat vaqtida turist, ekskursant tashrif buyuradigan asosiy joylarning ro'yxati bo'yicha turistning, ekskursantning rejalashtirilgan harakatlanish yo'li;

ekskursant – vaqtincha bo'lish mamlakatida (joyida) tunab qolmasdan yigirma to'rt soatdan oshmaydigan davrda sayohat qiluvchi jismoniy shaxs.

Asosiy qism: Milliy va xorijiy tajriba shuni ko'rsatadiki, jinoyat va boshqa huquqbuzarliklar uchun javobgarlikni kuchaytirish, tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshirishda

texnika vositalaridan foydalanish, huquqbuzarlikni sodir etgan shaxs ustidan nazoratni kuchaytirish kabi an'anaviy chora-tadbirlar jinoyatchilik darajasini kamaytirishda har doim ham kutilgan natijalarni bermayapti. Bu esa, o'z navbatida, huquqbuzarliklar profilaktikasida yangi ish uslublarini qo'llash, aholi va jamoatchilik bilan yaqin muloqotni yo'lga qo'yish, ichki ishlar organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini o'rnatish, shuningdek zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish lozimligini ko'rsatmoqda.

Ichki ishlar organlari o'z vakolati doirasida bevosita turizm namoyishi obyektlari va infratuzilmasi hududlarida jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta'minlash, huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish, jinoyatchilikka qarshi kurashish, turistlarning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlari, hayoti, sog'lig'i va mol-mulkini himoya qilish bo'yicha ichki ishlar organlariga yuklatilgan vazifalarning bajarilishini ta'minlash hamda ichki ishlar organlari bo'linmalarining ushbu yo'nalishdagi faoliyatini muvofiqlashtirish funksiyalarini amalga oshiruvchi Vazirlik markaziy apparatining tarkibiy bo'linmasidir.

Quyidagilar Xavfsiz turizmni ta'minlashni muvofiqlashtirish Ichki ishlar organlarining asosiy vazifalari hisoblanadi:

- turizm namoyishi obyektlari va infratuzilmasi hududlaridagi tezkor vaziyatni tizimli va kompleks tahlil qilish, turistlarga nisbatan sodir etilgan huquqbuzarliklarning sabab va sharoitlarini aniqlash hamda ularni bartaraf etish yuzasidan manzilli choralar ko'rish;

- turizm namoyishi obyektlari va infratuzilmasi hududlarida jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta'minlash, huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish, jinoyatchilikka qarshi kurashish, turistlarning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlari, hayoti, sog'lig'i va mol-mulkini himoya qilish borasida ichki ishlar organlari faoliyatini tashkil qilish va muvofiqlashtirish;

- turistlarning murojaatlari belgilangan tartibda qabul qilinishi va o'z vaqtida ko'rib chiqilishini ta'minlash;

- ilg'or xorijiy tajriba va huquqni qo'llash amaliyotini tahlil qilish asosida ichki ishlar organlarining xavfsiz turizmni ta'minlash borasidagi faoliyatini takomillashtirish, ushbu yo'nalishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish yuzasidan takliflar tayyorlash.

a) turizm namoyishi obyektlari va infratuzilmasi hududlaridagi tezkor vaziyatni tizimli va kompleks tahlil qilish, turistlarga nisbatan sodir etilgan huquqbuzarliklarning sabab va sharoitlarini aniqlash hamda ularni bartaraf etish yuzasidan manzilli choralar ko'rish sohasida:

tizimli tahlil asosida, dunyoda va respublikada kechayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar va hududlardagi tezkor vaziyatni inobatga olgan holda turistlar xavfsizligini ta'minlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni belgilash, ularning samarali amalga oshirilishini tashkil etish va nazorat qilish;

mehmonxonalar va boshqa joylashtirish maskanlari, ko'ngilochar va ovqatlanish joylari, moddiy madaniy meros obyektlari, boshqa turizm namoyishi obyektlariga infratuzilmasi (keyingi o'rinlarda-tashrif obyektlari) hamda ularga tutash hududlar terrorchilik va qo'poruvchilik xavfidan himoyalanganlik darajasini tizimli ravishda o'rganib borilishini tashkil etish;

tashrif obyektlari va ularga tutash hududlardagi ijtimoiy-siyosiy va tezkor vaziyatni, shuningdek, turistlar xavfsizligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan omillarni tizimli tahlil qilish, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan takliflar ishlab chiqish;

turistlarga nisbatan va ular tomonidan sodir etilgan jinoyatlarni o'z vaqtida fosh etish, ularning sodir etilishiga imkon bergan sabab va sharoitlarni aniqlash, tahlil qilish va bartaraf etish choralari ko'rish;

tashrif obyektlari va ularga tutash hududlarda turistlar xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan ma'lumotlar bazasi yuritilishini tashkil etish;

xavfsiz turizmni ta'minlash maqsadida huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish samaradorligini oshirish, kuch va vositalarni joylashtirish va qayta taqsimlash bo'yicha asoslantirilgan takliflar tayyorlash.

b) turizm namoyishi obyektlari va infratuzilmasi hududlarida jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta'minlash, huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish, jinoyatchilikka qarshi kurashish, turistlarning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlari, hayoti, sog'lig'i va mol-mulkini himoya qilish borasida ichki ishlar organlari faoliyatini tashkil qilish va muvofiqlashtirish sohasida:

tashrif obyektlari va ularga tutash hududlarda jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta'minlash, huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashishga qaratilgan ta'sirchan choralar ishlab chiqish;

turistlarning hayoti, sog'lig'i va mol-mulkiga nisbatan sodir etilishi mumkin bo'lgan huquqbuzarliklarning oldini olish borasida ichki ishlar organlarining hududiy bo'linmalari faoliyatini muvofiqlashtirish;

xavfsiz turizmni ta'minlash bo'linmalarining faoliyatini nazorat qilish, tekshirish, ularga amaliy va uslubiy yordam ko'rsatish, ish natijalarini umumlashtirish, tahlil qilish, baholash va faoliyat samaradorligini oshirish choralarini ko'rish;

tashrif obyektlari va ularga tutash hududlarda yashovchi (ishlovchi) ichki ishlar organlarida maxsus profilaktik hisoblarda turgan shaxslar hamda huquqbuzarlik sodir etishga moyil boshqa shaxslar bilan tizimli profilaktik tadbirlar o'tkazilishini tashkillashtirish;

tashrif obyektlarida jinoyatlarning oldini olish va ularga qarshi kurashishga qaratilgan tezkor-qidiruv tadbirlarini amalga oshirishda ichki ishlar organlarining tegishli bo'linmalari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar va boshqa davlat idoralari, shuningdek, korxona, tashkilot va muassasalar hamda jamoatchilik bilan samarali hamkorlikni tashkil etish;

noqonuniy ravishda turistik xizmatlar ko'rsatish hamda turistik faoliyat subyektlari tomonidan turistlarga xizmat ko'rsatishda noqonuniy xatti-harakatlarga yo'l qo'yilishining oldini olish, aholining turistik madaniyati va mehmondo'stlik fazilatlarini yuksaltirishga qaratilgan profilaktik tadbirlarni tashkillashtirish;

favqulodda vaziyatlarni yuzaga keltiruvchi manbalar to'g'risida turistlar o'z vaqtida xabardor qilinishi, jabrlangan turistlarga shoshilinch yordam ko'rsatilishini ta'minlash;

xodimlarning kasbiy tayyorgarligi va huquqiy bilim darajasini oshirish, xizmat intizomi va qonuniylikka qat'iy rioya etishlarini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni belgilash, ularning amalga oshirilishini nazorat qilish.

v) turistlarning murojaatlari belgilangan tartibda qabul qilinishi va o'z vaqtida ko'rib chiqilishini ta'minlash sohasida:

turistlardan kelib tushgan murojaatlar o'rnatilgan tartibda qabul qilinishi, qayd etilishi hamda qisqa muddatlarda to'liq va xolisona ko'rib chiqilishini tashkillashtirish;

hududiy bo'linmalarda murojaatlar bilan ishlash sohasida amalga oshirilayotgan ishlarni tizimli o'rganib borish, bu borada aniqlangan kamchiliklarni o'z vaqtida bartaraf etish choralarini ko'rish;

zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalarini joriy qilish orqali turistlarning murojaatlari bilan ishlash tizimini takomillashtirish bo'yicha takliflar kiritish.

g) ilg'or xorijiy tajriba va huquqni qo'llash amaliyotini tahlil qilish asosida ichki ishlar organlarining xavfsiz turizmni ta'minlash borasidagi faoliyatini takomillashtirish, ushbu yo'nalishda zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalarini joriy qilish yuzasidan takliflar tayyorlash sohasida:

turistlar bilan bog'liq jinoyatlarning oldini olish va ularga qarshi kurashish chora-tadbirlarini takomillashtirish, bu borada kuch va vositalarni samarali taqsimlash yuzasidan asoslantirilgan takliflar tayyorlash;

xavfsiz turizmni ta'minlash sohasiga joriy etilgan axborot-kommunikasiya texnologiyalarini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

turistlar xavfsizligini ta'minlash va ularga qulayliklar yaratish bo'yicha tahliliy materiallar tayyorlash hamda ular asosida takliflar ishlab chiqish;

ilg'or xorijiy tajriba va huquqni qo'llash amaliyotini tahlil qilish asosida xavfsiz turizmni ta'minlash faoliyatiga innovasion usul va uslublarni tatbiq etish bo'yicha takliflar tayyorlash.

Boshqarma qonun hujjatlariga muvofiq boshqa funksiyalarni ham amalga oshirishi mumkin.

Xulosa: Xulosa qilib aytganda, mamlakatda bo'lib turgan davrda sayyohlar xavfsizligini, transportdan foydalanish va ko'chishlarini ta'minlash bo'yicha turizm sohasida xizmatlar ko'rsatuvchi va yetib kelgan sayyohlar hisobini yurituvchi davlat va nodavlat tashkilotlarning yagona axborot bazasini shakllantirish rejalashtirilmoqda. Buxoro, Samarqand, Xiva va Shahrisabzdagi transport infratuzilmalari va xizmat ko'rsatish sohasi obyektlarida plakatlar, belgilar va ko'rsatkichlar o'rnatilmoqda. Mobil ilova sayyohlarni mamlakatimizda bo'lish qoidalari, viza va ro'yxatga olish jarayonlari, diqqatga sazovor manzillar va yo'nalishlar, shuningdek, yaqin ichki ishlar organi tayanch punktlari va tibbiyot muassasalari to'g'risida xabardor qilib turadi. Mazkur mobil ilovada sayyoh huquqni muhofaza qilish organlariga mushkul vaziyatga tushib qolganlik to'g'risida xabar yuborishi yoki o'z mamlakatining konsullik idorasiga murojaat yozishi mumkin. Yashash joyi xavfsizligini ta'minlash, mehmonxonaga joylashish va sayyohlarga xizmat ko'rsatish sohasida har bir mehmonxonada yetib kelgan sayyohlarning ma'lumotlar bazasini shakllantirishga imkon beruvchi «E-mehmon» elektron axborot tizimi joriy etilmoqda. Mehmonxonalarga kirish joyi kunu tun videokuzatuv ostida bo'ladi. Bundan tashqari, «Xavfsiz turizm» yagona apparat-dasturiy majmuasi joriy etiladi. Bu videokuzatuv, ma'lumotlarni tahlil qilish va avtomat ravishda qayta ishlash, huquqbuzarliklar va hodisalar to'g'risidagi xabarlarini qabul qilish va ro'yxatga olish tizimi hisoblanadi. Turistik diqqatga sazovor maskanlarga tashrif buyurgan sayyohlar va rasmiy xorijiy delegasiyalar xavfsizligini ta'minlash va kechki ko'ngilochar dasturlarni tashkil etish sohasida sayyohlarni individual himoya qilish bo'yicha maxsus texnik vositalarga bo'lgan talablarni ishlab chiqish va o'rnatish ham belgilangan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 18 iyuldagi «Turizm to'g'risida»gi qonuni. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 19.07.2019-y., 03/19/549/3446-son.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 06 martdagi "Jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6196-son Farmoni. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 26.03.2021-y., 06/21/6196/0240-son.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 13.08.2019 yildagi 669-son Ichki ishlar organlarining xavfsiz turizmni ta'minlash bo'linmalari tomonidan shartnoma asosida pulli xizmatlar ko'rsatish tartibini belgilash to'g'risidagi qarori. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 14.08.2019-y., 09/19/669/3570-son.

KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSIYALARNI ROLI

Melibayeva Gulxon Nazrullaevna

Qo'qon Universiteti Xalqaro turizm va iqtisodiyot kafedrasida katta o'qituvchisi

e-mail: gulhonmelibaeva@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqola tadbirkorlik subyektlarining raqobatbardoshligini oshirishda innovatsiyalarning strategik o'rnini o'rganishga bag'ishlangan. Tadqiqotda mahsulot, jarayon, marketing va tashkiliy innovatsiyalar kabi asosiy yo'nalishlarning iqtisodiy samaradorlikka ta'siri tahlil qilinadi. O'zbekiston misolida innovatsion infratuzilmaning rivojlanishi, texnoparklar, moliyaviy qo'llab-quvvatlash dasturlari va malakali kadrlar tayyorlash jarayonlari o'rganilgan.

Kalit so'zlar: kichik biznes, raqobatbardoshlik, kichik biznes subyekti, texnoparklar, aksiyalar likvidligi, intellektual resurslar, innovatsion jarayon.

Аннотация: Данная статья посвящена изучению стратегической роли инноваций в повышении конкурентоспособности субъектов предпринимательства. В исследовании анализируется влияние таких ключевых направлений, как продуктовые, процессные,